

**РЕГИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ
САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ
(НА ПРИМЕРЕ КОШРАБОТСКОГО РАЙОНА)**

Джомолов Элиёр

Чирчикский государственный университет, аспирант

Аннотация: В данной статье анализируется влияние природных условий и ресурсов на качество жизни населения Кошработского района Самаркандской области и проводится сравнение с другими районами и городами. В статье сравниваются и изучаются природные условия и ресурсы района с аналогичными показателями других районов, а также рассматриваются особенности, отличающие его от других районов.

Ключевые слова: Кошработский район, природные условия, минеральные ресурсы, промышленная продукция, диверсификация.

**REGIONAL ANALYSIS OF THE STANDARD OF LIVING OF THE
POPULATION OF SAMARKAND REGION
(USING THE EXAMPLE OF KOSHRABOT DISTRICT)**

Jomolov Eliyor

Chirchik State University, PhD student

Abstract: This article analyzes the impact of natural conditions and resources on the quality of life of the population in the Kushrabot district of Samarkand region and compares it with other districts and cities. This article compares and studies the natural conditions and resources of the district with those of other districts, as well as examines the features that distinguish it from other districts.

Keywords: Kushrabot district, natural conditions, mineral resources, industrial products, diversification

SAMARQAND VILOYATI AHOLI TURMUSH DARAJASINING HUDUDIIY TAHLILI (QO'SHRABOT TUMANI MISOLIDA)

Jomolov Eliyor

Chirchiq davlalat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi tabiiy sharoitlar va resurslarning aholining hayot sifatiga ta'siri va uni boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslash tahlil qilinadi. Ushbu maqolada tumanning tabiiy sharoitlari va resurslari boshqa tumanlarniki bilan taqqoslanadi va o'rganiladi, shuningdek, uni boshqa tumanlardan ajratib turadigan xususiyatlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Qo'shrabot tumani, tabiiy sharoit, mineral resurslar, sanoat mahsuloti, diversifikatsiyalash.

Kirish. Hozirgi davrda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholashda tabiiy sharoit va resurslarning aholi turmush sifatiga ta'sirini o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Har bir hududning geografik o'rni, iqlimi, yer va suv resurslari, foydali qazilmalari hamda ekologik holati uning xo'jalik ixtisoslashuvi va aholi farovonligining shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan tog'li va tog'oldi hududlarning rivojlanish xususiyatlari tekislik mintaqalaridan sezilarli darajada farq qiladi.

Samarqand viloyati respublikaning markaziy qismida joylashgan bo'lib, tabiiy-geografik o'rni, unumdor tuproqlari va Zarafshon daryosi havzasi bilan mamlakat qishloq xo'jaligi va sanoatida muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Viloyat hududi foydali qazilmalar, qurilish materiallari, rangli va nodir metallarga boy bo'lib, sanoat salohiyati yuqori hududlardan biri sanaladi. Shu bilan birga, viloyat tumanlari

o'rtasida tabiiy sharoit, suv ta'minoti, infratuzilma rivoji va iqtisodiy ixtisoslashuv darajasi bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjud.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Viloyatning shimoliy qismida joylashgan Qo'shrabot tumani o'zining tog'li relyefi, qurg'oqchil iqlimi va boy mineral resurslari bilan ajralib turadi (Kadirov M.R (2019)). Hududning tabiiy sharoiti bir tomondan qishloq xo'jaligi imkoniyatlarini cheklasa, ikkinchi tomondan konchilik sanoatini rivojlantirish uchun qulay zamin yaratadi. Ayniqsa, Zarmitan oltin ruda maydoni tumanning iqtisodiy ixtisoslashuvini belgilab beruvchi asosiy omillardan biridir. Biroq tabiiy resurslarning mavjudligi har doim ham aholi turmush sifatining yuqori darajada bo'lishini anglatmaydi (Oblaqulov H.A. (2022)). Tumanning geografik joylashuvi, suv resurslarining tanqisligi, transport va muhandislik infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi hududiy tafovutlarni yuzaga keltiradi.

Muhokama va natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qo'shrabot tumani tabiiy-geografik sharoiti jihatidan viloyatning boshqa tumanlaridan keskin farq qiladi. Hududning tog'li relyefda joylashgani, sug'oriladigan yer maydonlarining cheklanganligi va suv resurslarining tanqisligi qishloq xo'jaligi samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada aholi daromadining muhim qismi chorvachilik va konchilik faoliyatiga bog'liq tarzda shakllanadi.

Hududiy taqqoslash natijalari shuni ko'rsatadiki, viloyatning markaziy tumanlari suv resurslariga yaqinligi va transport infratuzilmasining rivojlanganligi sababli iqtisodiy jihatdan diversifikatsiyalashgan. Qo'shrabot esa asosan xomashyo yetkazib beruvchi hudud sifatida shakllangan. Bu holat iqtisodiy barqarorlik darajasini konchilik sohasiga yuqori darajada bog'lab qo'yadi.

Suv ta'minoti masalasi aholi turmush sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Viloyatning ko'plab tumanlari Zarafshon daryosi havzasidan foydalanayotgan bo'lsa, Qo'shrabot tumani asosan yer osti suvlari va yog'ingarchilikka tayanadi. Bu esa ichimlik suvi ta'minoti, dehqonchilik

samaradorligi va ekologik barqarorlik masalalarida ma'lum cheklovlarni yuzaga keltiradi.

Ijtimoiy infratuzilma nuqtai nazaridan ham hududiy tafovutlar mavjud. Tuman markazida ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari nisbatan yaxshi rivojlangan bo'lsa-da, chekka tog'li qishloqlarda xizmat ko'rsatish sifati va mavjudligi masofa hamda transport sharoitlariga bog'liq ravishda cheklanadi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Qo'shrabot tumanida tabiiy resurslar iqtisodiy o'sishning asosiy omili bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq suv tanqisligi, geografik joylashuv va infratuzilma cheklovlari hududiy rivojlanishning nomutanosibligini kuchaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Qo'shrabot tumani asosan tog' va tog'oldi hududida joylashgan. Relyefning baland va notekisligi, daryolardan uzoqligi sug'oriladigan yerlar maydonini keskin cheklaydi. Shu sababli tuman viloyatda sug'orma dehqonchilik bo'yicha oxirgi o'rinlardan birini egallaydi.

Ichimlik suvi ta'minoti tumanning eng og'riqli muammolaridan biridir. Markazlashgan suv tarmoqlari barcha qishloqlarga yetib bormagan. Aholi ko'pincha artezian quduqlari yoki tashib keltiriladigan suvdan foydalanadi. So'nggi yillardagi qurg'oqchilik hamda konchilik faoliyati suv resurslariga qo'shimcha bosim yuklamoqda.

Viloyatning Pstdarg'om, Toyloq, Jomboy kabi markaziy va janubiy tumanlari Zarafshon daryosi kanallari orqali suv oladi, Qo'shrabot esa asosan yog'ingarchilik va yer osti suvlariga tayanadi. Bu esa hududlar o'rtasidagi tabiiy tafovutni keskinlashtiradi.

Keng adir va yaylovlar mavjudligi sababli Qo'shrabot viloyatda qorako'l qo'ylari va mayda shoxli mollar soni bo'yicha yetakchi hududlardan biri hisoblanadi. Aholining deyarli har bir xonadonida tomorqa va chorva mavjud bo'lib, bu mahalliy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi.

Mahalliy go'sht, sut va mevalar tabiiy va sifatli hisoblanadi. Biroq narxlar viloyat markaziga yaqin tumanlarga nisbatan arzon emas. Buning asosiy sababi –

konchilik sohasidagi yuqori ish haqi va transport xarajatlaridir. Nooziq-ovqat mahsulotlari (texnika, kiyim-kechak, qurilish materiallari) logistika xarajatlari sababli qimmatroq.

Qo'shrabot iqtisodiyotining asosiy tayanchi – Zarmitan oltin koni. U Navoiy kon-metallurgiya kombinati tasarrufiga kiradi va respublikadagi eng yirik oltin konlaridan biri hisoblanadi. Zarmitan oltin ruda maydoni tarkibiga bir nechta konlar kiradi va bu hudud zaxiralari bo'yicha Muruntov koni dan keyingi o'rinlarda turadi. Kon asosida 4-sonli oltin saralash fabrikasi faoliyat yuritadi. Minglab mahalliy aholi doimiy ish bilan ta'minlangan. Kon atrofida zamonaviy ishchilar shaharchasi, yo'llar va elektr tarmoqlari barpo etilgan. Biroq statistik ma'lumotlarda ishlab chiqarish hajmi to'liq aks etmaydi, chunki asosiy mahsulot boshqa hududdagi qayta ishlash korxonalariga topshiriladi.

Samarqand viloyatida yillar davomida Samarqand shahri, Jomboy va Urgut tumanlarida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'rsatkichlari eng yuqori holda saqlanib kelmoqda. Masalan Samarqand shahri viloyat sanoatmahsulotlari ishlab chiqarishda 2020-yil hisobida 43.3 % ni tashkil etgan bo'lsa 2025-yil 35,2 % ini tashkil etgan. Ko'rsatkichlar bo'yicha Qo'shrabot, Nurobod va Payariq tumanlari eng past ko'rsatkichlarni tashkil etgan. Qo'shrabot tumanining bunday past ko'rsatkichga egaligi aholining katta qismi Zarmitan oltin konida faoliyat yuritishidir.

Samarqand shahri, Jomboy va Urgut tumanlarida sanoat mahsuloti hajmi bo'yicha yetakchiligiga sabab iqtisodiyot diversifikatsiyalashganligidir (qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, xizmat ko'rsatish va kichik sanoat).

1 - jadval

Tumanlar bo'yicha sanoat mahsuloti hajmi

(amaldagi narxlarda; mlrd. so'm)

№	Hududlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
1.	Samarqand sh.	8 080,3	10 222,5	13 341,3	14 840,8	16991,2	20386,5
2.	Kattaqo'rg'on sh.	398,5	377,1	412,1	761,4	1031,1	1178,8

3.	Oqdaryo	456,7	590,1	551,6	717,8	992,5	1 313,7
4.	Bulung'ur	481,8	530,3	661,9	730,8	1 065,4	1 204,2
5.	Jomboy	2 171,9	2 595,9	3 204,5	3 226,8	4 095,7	5 258,1
6.	Ishtixon	366,7	527,7	624,8	740,8	877,6	1 129,7
7.	Kattaqo'rg'on	461,0	543,8	574,8	682,4	1 814,4	2 337,2
8.	Qo'shrabot	79,6	86,4	116,9	144,4	229,8	373,6
9.	Narpay	557,3	578,4	710,2	863,1	976,9	1 280,2
10.	Payariq	400,1	470,6	606,6	668,0	432,2	724,5
11.	Pastdarg'om	763,3	840,0	1 055,6	1 088,6	1 569,9	1 807,4
12.	Paxtachi	376,9	472,3	579,6	826,5	975,2	1 051,7
13.	Samarqand	1 350,8	1 773,1	1 994,4	2 252,1	3 311,8	3 464,6
14.	Nurobod	224,4	273,0	431,8	516,1	485,8	727,8
15.	Urgut	1 558,1	1 710,7	2 075,1	2 441,5	3 240,6	4 242,1
16.	Tayloq	656,1	1 242,4	2 247,5	2 454,5	3 153,0	3 382,0
	Viloyat	18 383,4	22 834,3	29 188,6	32 955,7	45408,0	57767,5

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Qo'shrabot 2020-yilda eng past ko'rsatkich (79,6 mlrd so'm), 2025-yilda o'sish sur'ati yuqori (4,7 baravar), ammo mutlaq hajm past. Sanoat faqat konchilik va Zarmitan oltin koniga bog'liq.

Hududiy tafovutlarning asosiy sabablari geografik joylashuv, chekka tumanlarda transport va infratuzilma qiyinligi, tumanda tabiiy boyliklar bor, lekin mahalliy qayta ishlash past. Diversifikatsiyalashmaganligi ya'ni markaziy tumanlar kichik va o'rta biznesni rivojlantirgan, chekka tumanlar esa bir yoki ikki sanoat turi bilan cheklangan.

Sanoat mahsuloti hajmi bo'yicha viloyat tumanlari o'rtasida katta tafovut mavjud. Masalan:

Samarqand shahri va Toyloq tumani kichik va o'rta biznes hamda qayta ishlash sanoatiga tayanadi.

Jomboy, Pastdarg'om kabi tumanlar qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati bilan ajralib turadi.

Qo'shrabot esa og'ir sanoat va konchilikka ixtisoslashgan.

Rasmiy statistikada Qo'shrabot sanoat hajmi past ko'rinsada, bu oltin qazib olish mahsulotlarining boshqa hududlarda hisobga olinishi bilan izohlanadi.

Qo'shrabot tumani Samarqand viloyati shimoliy chekka hududda joylashgan bo'lib, infratuzilma va transport imkoniyatlari viloyatning markaziy tumanlariga nisbatan sezilarli darajada cheklangan. Tumanning tog'li relyefi va chekka joylashuvi gaz, ichimlik suvi, elektr energiyasi va yo'l infratuzilmasini rivojlantirishda muhim qiyinchiliklarni tug'diradi. Qo'shrabot viloyatning asosiy magistral yo'llaridan, masalan, M37 va M39 dan biroz chetda joylashgan. Natijada, logistika xarajatlari yuqori bo'ladi, Nooziq-ovqat va qurilish mollari narxi viloyat markazidagi tumanlarga nisbatan yuqori bo'ladi, Mahalliy ishlab chiqarilgan xomashyo va sanoat mahsulotlarini bozorga yetkazish biroz sekinlashadi.

Tumanning tog'li hududi yo'l qurilish va texnik xizmat ko'rsatishni qiyinlashtiradi. Ko'pgina chekka qishloqlar faqat yengil transportdan foydalanadi. Shu sababli logistika markazlari va xizmat ko'rsatish sektori rivojlanishi sekin kechmoqda. Qo'shrabot tumanining iqtisodiy rivojlanishi konchilik sanoatiga bog'liq bo'lib, Zarmitan koni mahsulotlarini Navoiy kon-metallurgiya kombinati tizimiga yetkazish logistika tizimi orqali amalga oshiriladi. Biroq transport masofasi va tog'li

hudud transport xarajatlarini oshiradi, bu esa tuman ichidagi sanoat diversifikatsiyasini sekinlashtiradi. Shu bilan birga, tuman markazidagi yo‘l va elektr infratuzilmasi modernizatsiya qilinmoqda, bu esa kelgusida mahalliy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishiga ijobiy ta’sir qilishi kutilmoqda.

Gaz quvurlari hamma xonadonlarga yetib bormagan. Ko‘plab qishloqlarda suyultirilgan gaz yoki muqobil yoqilg‘i ishlatiladi. Elektr energiyasi tuman markazida yetarli bo‘lsa-da, chekka hududlarda qo‘shimcha uzatuv liniyalari talab etiladi.

So‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash tizimida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda: oilaviy poliklinikalar qurilmoqda. Biroq chekka tog‘li hududlarda tibbiy xizmatga yetib borish vaqt va masofa talab qiladi. Ta’lim tizimi markazda nisbatan yaxshi rivojlangan, lekin olis qishloqlarda ixtisoslashgan maktablar va zamonaviy infratuzilma yetishmaydi.

Xulosa. Qo‘shrabot tumani Samarqand viloyatining: eng baland va quruq, suv resurslari cheklangan, ammo foydali qazilmalarga boy hududi hisoblanadi. Tuman aholisi turmushi hududlari bo‘yicha farq qiladi. Jumladan, yo‘l bo‘yi va markazga yaqin hududlarda qulay sharoit mavjud bo‘lsa, chekka qismlarida unchalik yaxshi emas. Ya’ni, qazilma boyliklar va qishloq xo‘jaligi hisobiga aholining doimiy daromad manbai mavjud. Biroq kundalik yashash sharoitlari (suv, gaz, yo‘l) viloyatning tekislikdagi tumanlariga qaraganda ko‘proq mehnat va chidamlilikni talab qiladi. Oxirgi yillarda tumanda Quyosh panellari va artezian quduqlari yordamida aholi yashash sifatini ijobiy tomonga biroz o‘zgarmoqda.

Agar viloyatning markaziy tumanlari ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish markazi bo‘lsa, Qo‘shrabot tumani xomashyo va strategik resurslar markazidir. Oltin konlari hudud iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlasa-da, suv tanqisligi, infratuzilma cheklovlari va geografik yakkalanish aholi turmush sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Kelajakda barqaror rivojlanish uchun:

- suv ta’minotini yaxshilash,
- qayta ishlash sanoatini rivojlantirish,

- transport infratuzilmasini kengaytirish,
- ekologik muvozanatni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shundagina Qo'shrabot tumani o'zining tabiiy resurs salohiyatini aholining yuqori turmush darajasiga to'liq xizmat qildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Soliev A.S. Tanlangan asarlar. – T.: , 2018. 320 bet
2. Kadirov M.A. Samarqand viloyati geografiyasi (monografiya).Toshkent - 2019. 158 b
3. Хасанов И.А., Гуломов П.Н. Ўзбекистон табиий географияси (1 қисм). Ўқув қўлланма.-Т.: Ўқитувчи, 2007.
4. Умаров М., Ашуров Г., Саидмуродов Ф. Самарқанд области географияси. Т.: Ўқитувчи , 1989. – 73 б.
5. Abdalova Z.T., Tojiev Z.N. Iqtisodiy geografiya. – Toshkent., Iqtisod-moliya., 2013 212 b.
7. Turdimambetov I.R., Oteuliev M.O. Qoraqalpog'iston Respublikasi aholi turmush sifatining hududiy tafovutlari (monografiya). – Toshkent. Zebo prints , 2023.144 b.
8. 8. Ibragimova R.A. Jahon geografiyasi (Markaziy Osiyo tabiiy geografiyasi). Toshkent: Ma'rifat, 2023. 224 b.
9. Nabiev E., Qayumov A. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati. - Toshkent: Akademiya, 2000. 88 b.
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi <https://stat.uz/uz/>